Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

iqtisodiyotga o‘tishi va ekologik muammolar yechimini hal qilishi uchun quyidagilar taklif qilinadi:

1) Energoresurslardan, suvdan, yerdan tejamkorlik bilan samarali foydalanish;

2) Elektroenergiya ishlab chiqarishga, chiqindilarni qayta ishlashga investitsiya kiritish asosida davlat, xususiy-sherikchilik va xususiy korxonalarni tashqil qilish;

3) Xalqimizni ekologik savodxonligini, bilimini, ekologik dunyo qarashini yanada kengrok shakllantirish;

4) uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida energiya tejamkorligini ta’minlash;

5) ekotizimlarni samarali boshqarish;.

6) Atrof-muhitning ekologik xolati, alternativ variantlarga ega bo‘lgan elektroenergiyani ishlab chiqarish, "yashil" transport, chiqindilar va "yashil" texnologiya, yer va suvga bo‘lgan insonni munosabatlari shu yo‘nalishlardadir.

Demak, "yashil" iqtisodiyotga tezroq o‘tish uchun, mavjud ekologik muammolarni yechimini topish uchun iqtisodiy mexanizmini ilmiy va amaliy jihatdan qanoatlantirilgan holda tezroq qo‘llash lozim bo‘ladi, ya’ni foydalaniladigan resurslar me’yori va narxlari asosida imtiyozlar va jarimalar tizimini takomillashtirib, keng ko‘lamda amalda qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga muljallangan yangi O‘zbekistonning tarakkiyot strategiyasi tugrisida"gi PF-60-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O‘zbekiston-2030" strategiyasi tugrisida"gi PF-158-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi "2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga utishiga karatilgan isloxotlar samaradorligini oshirish buyicha chora-tadbirlar tugrisida"gi P^-436-son karori.

4. A.Nigmatov va boshk. Barkaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari. Monografiya. - T.: "Spectrum Media Group", 2015. - 120 b

5. M.T Bo‘taboyev.,- ” Yashil iqtisodiyot” , Darslik, Farg‘ona, 2023.

6. M.T Bo‘taboyev., I.N.Ismanov., ” Yashil iqtisodiyot”, O‘quv qo‘llanma, Farg‘ona, 2024.

BYUDJET SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti
85fara19@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekistonda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish,raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini tashkil etadi. Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida budjet siyosatini

Published: 23.12.2024

Cite this article: Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich (2024). Byudjet siyosati samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1131

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

takomillashtirish, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligin oshirish kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada budjet siyosati samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, budjet, davlat budjeti, mahalliy budjet, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, budjet taqchilligi, aholi farovonligi.

Byudjet siyosati “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi va 2020–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida belgilangan yo‘nalish va maqsadlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu borada uzoq muddatda fiskal barqarorlikni ta’minlash. Bunda, uzoq muddatda fiskal barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha kiritilgan fiskal qoidalarga qat’iy amal qilish; budjet mablag‘lari samaradorligi va natijadorligini oshirish. Yillik byudjetni shakllantirishda “Natijaga yo‘naltirilgan byudjet” tizimini bosqichma-bosqich to‘laqonli joriy etish; byudjet ochiqligini ta’minlash hamda byudjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish; budjet siyosatida inson kapitali rivojlanishiga doir xarajatlar ustuvorligini ta’minlash; “Yashil byudjetlashtirish” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish kabi yo‘nalishlar ko‘zda tutilgan. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida tilga olib o‘tilgan ustuvor yo‘nalishlar orqali byudjet siyosatini takomillashtirish ilmiy yondashuvni talab etadi.

Byudjet siyosatini amalga oshirish yo‘nalishlari hozirgi kunga qadar amalga oshirish modellari daromad va xarajatlar ustuvorligidan kelib chiqqan holda ta’minlandi. Masalan, daromadlarning hajmidan kelib chiqib xarajatlarni shakllantirish amaliyoti mavjud. Bu shuni anglatadiki, davlatning funktsiya va vazifalarining bajarilishi ularning zarurligidan emas, balki daromadlarning qanchaligidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Mazkur tendentsiyaning shakllanishi ko‘proq daromadlar bo‘yicha xarajat modelida vujudga keladi, bu esa aholini zarur ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlanishiga imkon bermaydi. Ushbu holat davlat byudjet xizmatlariga talab oshishi bilan birga, soliq tushumlarining yetarli miqdorda shakllanishi ta’minlanmagani bilan izohlanadi.

Ushbu ikkinchi modelda, hozirgi zamonaviy tendentsiyalar o‘zining ifodasini topadi, deb o‘ylaymiz. Bunda davlat zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosining moliyaviy ta’minotida bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqqan holda, turli manbalardan foydalanish nazarda tutiladi. Bunday holatda byudjetga moliyaviy yukni kamaytirish uchun xususiy amaliyotni rivojlantirish nazarda tutiladi. Hozirgi kunda jahonning ko‘plab mamlakatlarida ushbu tajribadan foydalanish keng tus olmoqda. Bu borada, O‘zbekistonda ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tibbiy xizmatlarning belgilangan toifalarini xususiy soha tomonidan taqdim etilishiga yoki oliy ta’lim tizimida to‘lov shartnoma mexanizmining joriy etilishi kabi misollar shular jumlasidan.

Keyingi modellar moliyaning taqsimlash (qayta taqsimlash) funktsiyasi orqali vujudga kelgan bo‘lib, milliy daromadni aholi qatlamlari o‘rtasida muvozanatli taqsimlashni nazarda tutadi. Davlat soliq mexanizmlaridan foydalangan holda yuqori daromad oluvchi aholi qatlamining ma’lum daromad qismini kam daromadli qatlamga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish uchun byudjet daromadlariga jalb etadi. Natijada, barchani ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Shuningdek, moliyaviy adolat ta’minlanadi.

Bizningcha, mazkur moliyaviy adolatning ta’minlanishiga erishish bu ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos hisoblanadi. Sababi, davlat o‘z zimmasidagi funktsiya va vazifalarni xususiy sektor orqali pulli tarzda yo‘naltirishga yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli, mazkur modelning xususiyatlari amal qiluvchi mamlakatda soliq yukining darajasi ham yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, davlat barcha ijtimoiy majburiyatlarni o‘z zimmasida markazlashgan holda saqlab turadi.

Byudjet siyosatining amaldagi modellaridan yana biri – bu soliqlar vositasida makroiqtisodiy tartibga solish imkoniyatlaridan foydalanish. Davlat soliq siyosatini amalga oshirish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tartibga soladi va ularning barqarorligini ta’minlashga harakat qiladi.

Fikrimizcha, byudjet siyosatining asosiy xususiyatlari quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

daromadlarning hajmidan kelib chiqib, xarajatlar yo‘nalishini belgilash;

xarajatlarning zaruratlik darajasiga asoslanib, daromadlarning belgilangan hajmini ta’minlash;

aholining kam daromadli qatlamida passiv moliyaviy manfaatdorlikning ta’minlanishiga erishish;

byudjet daromalarini shakllantirish orqali makroiqtisodiy tartibga solish mexanizmini yuzaga keltirish vositasi bo‘lishi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida byudjet siyosatini shakllantirishning quyidagi maqsadlarni o‘zida aks ettirishini qayd etish mumkin:

birinchidan, jamiyatda moliyaviy resurslarni muvozanatli taqsimlash;

ikkinchidan, davlat zimmasidagi funktsiyalarni bajarish va aholi hayot sifatini oshirishda aholi, iqtisodiyot subyektlari va davlat o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarda ularning manfaatlarini inobatga olgan holda iqtisodiy muvozanatni ta’minlash;

uchinchidan, byudjetning barcha darajalari, tuzilmasi va byudjet munosabatlarini rivojlantirish uchun moliyani boshqarishni takomillashtirish;

to‘rtinchidan, byudjet xarajatlarini boshqarishda markazlashtirish amaliyotining qisqartirib borilishiga erishish;

beshinchidan, byudjet xarajatlari hisobidan moliyalashtiriluvchi tadbirlarni davlat zimmasidan xususiy tarmoq hissasiga bosqichma-bosqich o‘tkazib borish;

oltinchidan, byudjet siyosatini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtiroki va nazoratini rivojlantirish.

Shu jihatdan olib qaralganda, byudjet siyosatini shakllantirish va ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

byudjet kontseptsiyasini zamon va makondan kelib chiqib, uning iqtisodiyotdagi hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishdagi rolini belgilash;

byudjet munosabatlarini mezonlashtirish, mablag‘larni taqsimlash uslubiyatini takomillashtirish orqali byudjet barqarorligini ta’minlash;

byudjet siyosatining maqsad va vazifalarini aniq shakllantirish. Bunda maqsadli yo‘naltirilgan byudjetning barcha o‘lchov va instrumentlarini kompleks tarzda bo‘lishini ta’minlash;

jamiyatning rivojlanish tendentsiyasida byudjet mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojning hajmini aniqlash metodologiyasini joriy etish.

Umuman olganda, hududlarning moliyaviy salohiyatidan kelib chiqib, byudjet xarajatlarining tutgan o‘rni va roli turlicha bo‘ladi. Masalan, moliyaviy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda byudjet xarajatlariga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lmaydi. O‘z navbatida, ushbu hududda davlat zimmasidagi vazifalarni pulli tarzda amalga oshirish mumkin. Shuningdek, moliyaviy salohiyati yuqori bo‘lmagan hududlarda byudjet mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘ladi. Natijada, byudjetning yuqori turuvchi byudjet mablag‘lariga bo‘lgan talabi ortadi va davlat zimmasidagi vazifalarni pulli tarzda yetkazish imkoniyati qisqaradi.

Byudjet siyosatining amalga oshirilishi byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish zaruriyati bilan belgilanadi. Bu byudjet xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashtirish orqali yuzaga kelishini ta’kidlash lozim. Ushbu jarayonda byudjet

xarajatlarining bozor munosabatlariga asoslangan holda davlat zimmasidan xususiy sektor zimmasiga o‘tib borishi bilan byudjet siyosatining shakllanishi yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida byudjet xarajatlarining yo‘nalishlari hamda byudjet siyosatining fundamental asoslari belgilangan. Mazkur Kodeksning 69-moddasiga binoan, davlat byudjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

iqtisodiyot xarajatlari;

markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

sudlarni saqlab turish xarajatlari;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

boshqa xarajatlar (O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, 2013).

Qayd etib o‘tilgan xarajatlar yo‘nalishlari byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan bo‘lsada, ular uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hajmini yillar kesimida o‘zgarishi bilan byudjet siyosati yo‘nalishlarining ustuvorliklari namoyon bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida byudjet siyosatining quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishini qayd etish mumkin:

ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirishda tizimli tahlil unsurlaridan foydalanish, bunda: sog‘liqni saqlash tizimidagi ijobiy natijalar o‘laroq, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirishning passiv xususiyatga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, boshqacha aytganda, insonlarning umri uzayishi bilan ularning yalpi daromadni yaratishdagi ulushini ham shunga muvofiqlashtirish lozim. Shunda o‘rtacha umr ko‘rishning uzayishi aktiv xususiyatga ega bo‘ladi. Mazkur holatda esa, insonlarning ta’lim olishlari uchun ijtimoiy va moliyaviy shart-sharoitlarni nostandartlashtirish lozim bo‘ladi;

byudjetning iqtisodiyot xarajatlari hisobidan byudjet xarajatlarini oshib ketishini oldini olish uchun iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, davlat-xususiy sherikchiligi asosida loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish;

iqtisodiyotning zamonaviylashuvi natijasida ekologik oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlarni amaga oshirishda byudjet siyosatiga ustuvorlik berish. Bunda ekologik vaziyatni murakkablashtiruvchi jarayonlarni byudjetning ta’sir mexanizmi orqali tartibga solishni kuchaytirish.

Byudjet siyosatini amalga oshirishning bir qator tamoyillari sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: maqsadlilik; shaffoflilik; tushunarlilik; ijtimoiylik; yetarlilik; tejamkorlik; natijaviylik.

Tejamkorlik – bu sifatli, lekin raqobatga asoslangan tovar (xizmat)larni xarid qilish. ijtimoiylik unsuri byudjet xarajatlarining katta qismini aks ettiruvchi ijtimoiy xarajatlardan tashqari, byudjet mablag‘larining boshqa yo‘nalishlari ham oxir-oqibatda ijtimoiy natijalarni keltirib chiqarishini taqozo etadi.

Byudjet tizimi mamlakat byudjet tuzilishining tarkibiy qismi bo‘lib, uning ma’lum bir qismini o‘zida ifoda etadi. Shu ma’noda, byudjet tizimi mamlakat byudjetining o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan bo‘g‘inlarining o‘zaro yig‘indisidan iboratdir. Mamlakatning byudjet tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma’muriy-hududiy bo‘linishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatning byudjet tizimi ikki yoki uch bo‘g‘inli bo‘lishi mumkin. Unitar davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki bo‘g‘indan (markaziy va mahalliy byudjetlar), federativ davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda esa uch bo‘g‘indan (markaziy byudjet, federatsiya a’zolari

byudjetlari va mahalliy byudjetlar) iborat bo‘lishi mumkin (Abduvoxidov va boshq,2023).

Maqolani tartiblash jarayonida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Byudjet siyosatini shakllantirish va ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

byudjet kontseptsiyasini zamon va makondan kelib chiqib, uning iqtisodiyotdagi hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishdagi rolini belgilash;

byudjet munosabatlarini mezonlashtirish, mablag‘larni taqsimlash uslubiyatini takomillashtirish orqali byudjet barqarorligini ta’minlash;

byudjet siyosatining maqsad va vazifalarini aniq shakllantirish. Bunda maqsadli yo‘naltirilgan byudjetning barcha o‘lchov va instrumentlarini kompleks tarzda bo‘lishini ta’minlash;

jamiyatning rivojlanish tendentsiyasida byudjet mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojning hajmini aniqlash metodologiyasini joriy etish.

2. Mamlakatimizda byudjet siyosatini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda quyidagilarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi:

byudjet siyosatini amalga oshirishda yakuniylik, natijaviylik va manzillilik kabi tamoyillarga e’tibor berishni taqozo etuvchi metodologik asoslarni yaratish;

byudjet daromadlarini tor doiradagi manbalarga bog‘liq bo‘lib qolmasligini ta’minlash va soliqsiz daromadlar ulushini oshirib borish;

byudjet mablag‘laridan byudjetdan tashqari jamg‘armalarning xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

byudjet xarajatlari maqsad ko‘rsatkichlarining ma’lum mezonlar yordamida baholanib borishini ta’minlash amaliyotini tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi: Darslik / Sh.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov; -T .: “Iqtisod-Moliya”, 2019.- 352 b.

Muqimov Z. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – 131 bet.

Jo‘raev B.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat byudjetining roli: i.f.n. ... avtorferat. –Toshkent, BMA: 2001. – 21 b.

Pardayev U.U. Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish: (PhD) ... avtoreferati. – Toshkent: TMI, 2018. – 58 b.

Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) ... avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2018. – 72 b.

Дуплинская Е.Б. Оценка результативности бюджетного регулирования в услувоиях модернизации публичного управления: автореферат ... к.э.н. - НОУ ВПО «Сибирская академия финансов и банковского дела». - Новосибирск, 2011. – 20 с.

Моисеев А.К. Макрофинансовая политика экономического роста: автореферат ... д.э.н. – Институт народнохозяйственного прогнозирования РАН. – Москва, 2017. – с. 45.

Suvanov A.T. Mahalliy budjetlar ijrosi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari (Namangan viloyati misolida): i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2005. – 21 bet.

Богомолов С.В. Оценка бюджетной устойчивости и эффективности управления бюджетными средствами муниципальных образований и субъекта РФ: автореферат … к.э.н. – ГОУ ВПО «Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского». - Нижний Новгород, 2010. – с. 28.

Qurbonov X.A. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2010. – 22 bet.

Turabov B.T. Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash masalalari: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2007. – 20 bet.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013 yil 26 dekabr. https://lex.uz/docs/2304138

Moliya va soliqlar: oliy ta’limning 60310100 - “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”, 60411200-“Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.O‘razmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2022. – 774 b.

Abduvoxidov A., Qodirova D., Obilov M. O‘zbekistonda mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini takomillashtirish yo ‘llari //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 4-12.

Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(4), 12–21. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp12-21

XODIMLARGA ISH VAQTINI QANDAY BELGILASH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Chorshanbaev Umurzoq
Guliston davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya”kafedrasi o‘qituvchisi
mail: umurzokchorshanbayev@gmail.com +998-94-161-79-01

Muhammadaliyeva Zulfizar
Guliston davlat universiteti " Rakamli
iqtisodiyot va innovasiyalar”fakulteti talabasi
E-mail: muhammadaliyevazulfizar@gmail.com +99-890-555-04-31

Аннотация: Ушбу мақолада иш вақти бошқаруви ва уни белгилаш методлари ҳақидаги масалаларга эътибор қаратилган. Мақолада иш вақти самарадорлигини ошириш, ишчиларнинг саломатлигини ва рухий ҳолатини сақлаш учун иш вақтини қандай белгиланиши ва қандай усуллардан фойдаланиш муҳим экани хусусида сўз юритилади. Шунингдек, ишчиларнинг ҳуқуқларига риоя қилиш ва уларнинг ижтимоий муаммоларини ҳал қилиш учун иш вақтини белгилашнинг самарали йўллари кўриб чиқилади. Мақолада иш вақти, унинг шакллари ва турлари, шунингдек, иш жойидаги самарадорликни ошириш учун иш вақтини белгилашдаги замонавий ёндашувлар таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: иш вақти, иш вақти бошқаруви, самарадорлик, ижтимоий ҳимоя, меҳнат қонунчилиги, иш жойи.

Кириш.

Меҳнат бозори ва ишчи ҳуқуқлари замонавий иқтисодиётда муҳим аҳамиятга эга. Иш вақти – ҳар бир ишчининг ишга кетган вақти ва дам олиш вақти ўртасидаги муносабатни белгиловчи асосий омилдир. Иш вақти бошқаруви — ишчиларнинг меҳнат шароитларини яхшилаш, уларнинг саломатлиги ва ҳамда иш жойидаги самарадорликни ошириш мақсадида иш вақтини самарали белгиловчи назарий ва амалий ёндашувлар жиҳатидан аҳамиятга эга. Шу боис, иш вақтини белгилашда меҳнат қонунчилиги, ишчиларнинг жисмоний ва рухий ҳолати, иш жойининг талаблари, шунингдек, ишнинг хоссаларига асосланган бўлиши лозим.

Bugungi kunda korxona muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri – bu xodimlarning vaqtini to‘g‘ri boshqarishdir. Ish vaqtining noto‘g‘ri taqsimlanishi xodimlarning charchoqqa tushishi, motivatsiyaning pasayishi va natijada